

## DAVLAT ORGANLARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI.

**Shodmanov Ravshanxon Rabbonaxon o'g'li**

**Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti  
Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayns nazorati yo'nalishi magistranti**

O'zbekiston Respublikasida Prezidentning 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonining 84-maqjadi sifatida korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo'llab-quvvatlash, korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish, aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish va normativ-huquqiy hujjatlarning "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta'minlash<sup>1</sup> kabi vazifalar qo'yilgan. Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga mas'ul bo'lgan organlar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan va qilinishi kerak bo'lgan ishlar ham yo'q emas. Dunyodagi korrupsiya darajasini o'rganuvchi Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida O'zbekiston oxirgi uch yilda 12 pog'onaga ko'tarilgan(2022-yil holatida 126 o'rin) bo'lsa-da, hali bu illat barham topmagan. Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng asosiy yo'li davlat organlari faoliyati va ish jarayonlarini shaffof qilishdir. Bunda eng asosiy e'tiborni ishga olish, davlat xaridlari, ruxsatnoma va litsenziyalar berish kabi jarayonlarda ochiq-oshkoralikni ta'minlashga qaratish lozimligi belgilandi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlarining asosiy vazifalaridan biri bu oshkoralik va shaffolik. O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonunida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat dasturlari hamda boshqa dasturlar amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, normativ hamda boshqa hujjatlar, shuningdek ularning ijro etilishining borishi to'g'risidagi ma'lumotlar, budjetdan ajratiladigan mablag'lardan, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanilishi, o'tkazilgan tanlovlar (tenderlar) va olingan tovarlarning yetkazib berilishi to'g'risida, vazirliklar, idoralar, davlat maqsadli jamg'armalari hamda boshqa budjet mablag'larini taqsimlovchilar tomonidan o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladigan tegishli axborotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan o'tkaziladigan (tashkil etiladigan) ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari to'g'risidagi ma'lumotlar kabi korrupsion holatga olib havfi yuqori ma'lumotlar davlatning har bir fuqarosi uchun ochiq va oshkora bo'lishi belgilangan.

Bu bilan korrupsiyani oldini olishga nafaqat ma'sul organlar balki, fuqarolar ishtiroki ham muhim ekanligi ko'zlangan. Chunki biz faqat ma'lum bir organlarga ushbu illatga qarshi kurashishni topshirib qo'yishimiz bilan korrupsiya holatlarni kamaytirishimiz juda qiyin. Xususan xorijiy davlatlarda jumladan, Singapurda(Transparency International xalqaro tashkiloti indeksida 5 o'rin) ham aynan korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlarining ochiq va shaffof ishlashi orqali yuqori natijalarga erishgan. Ushbu illatga qarshi kurashishdagi yana bir muhim vositalardan biri – jamoatchilik nazorati. Bugungi kunda yurtimizda 10 mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda. Lekin ularning o'rni va faolligi sezilmayapti. Chunki bu tashkilotlar manfaatlarini ifoda etuvchi, davlat bilan ko'prik vazifasini bajaruvchi yaxlit tizim yo'q. Hozirda jamoatchilik bilan ishlash tizimi joylarda va

sohalarda xalqimizni qiynayotgan masalalarni davlat miqyosiga olib chiqib, hal qilishda natija ko'rsata olmayapti. Ko'plab nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati rasmiyatchilikdan iborat bo'lib qolmoqda. "Mahalla", "Nuroni", Xotin-qizlar qo'mitasi kabi yirik birlashmalardan xalqimiz qanday naf ko'ryapti, ular hayotimizdagi qaysi o'tkir masalani ko'tarib, hal qilishga erishdi, degan savolga, afsuski, ijobiy javob yo'q. Shu bois Prezidentimiz Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yana-da kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasi tashkil etish taklifini ham bildirgan edi. Jamoatchilik palatasi aholi fikrini muntazam ravishda o'rganib borishi, ularning yechimini topish bo'yicha davlat idoralari oldiga aniq vazifalarni qo'yishi zarurligi ta'kidlandi. "Jamoatchilik eshituvi", "jamoatchilik monitoring", "jamoatchilik ekspertizasi", "jamoatchilik tashabbusi" kabi ta'sirchan nazorat shakllarini hayotga tatbiq etish muhimligi ko'rsatib o'tildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari hamda davlat idoralari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini jonlantirish, ularga har tomonlama uslubiy ko'mak berish ham yangi palata faoliyatining muhim yo'nalishlaridan bo'ladi.

O'zbekistonda ham yangi siyosiy vaziyat shakllanmoqda. Konstitutsiyaviy islohotlar o'tgach, hokimiyat jamiyat bilan o'zaro muloqotlarini yanada izchillashtirishi kerak bo'ladi. Yangi Konstitutsiyaning ishlashi uchun ham, Jamoatchilik palatasi kerakki, yangi bosh qonun nazarda tutgan davlat institutlari va mexanizmlarini ishlatishga doim energiya, ma'naviy va intellektual yoqilg'i purkab turadigan salohiyatli siyosiy kuch rolini o'ynardi.

Jamoatchilik palatasiga davlat va jamiyat o'rtasida ko'prik, bog'lovchi, moderator rolini o'ynay oladigan shaxslar jamoasini to'plash zarur bo'ladi. Jamoatchilik palatasi to'g'ri shakllantirilib, to'g'ri vazifalar yuklatilsa, bu davlat organlarini korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini mustahkamlanishiga ijobiy ta'sir qilar edi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ismailov B.I. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xorijiy davlatlar amaliyoti va halqaro standartlar tizimi shakllanishi.// O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy ta'lim markazi, YUMOM. 2019.-150 b.

2. Anvarova D. Korrupsiyaviy xavf-xatar: uni aniqlash va baholashning qiyosiy huquqiy tahlili. Huquq va burch ijtimoiy-huquqiy jurnal. 3/2020-son. 18-23 bb;

3. Zikrillayeva N.A. Дальнейшее совершенствование антикоррупционной политики Узбекистана. Мехнат бозори ва ижтимоий химоя / Риннок труда и социальная защита. 2017, № 12. – 44 С;

4. Сеть по борьбе с коррупцией для стран Восточной Европы и Центральной Азии. Антикоррупционные реформы в Узбекистане. 4-й раунд мониторинга в рамках Стамбульского плана действий по борьбе с коррупцией. ОЭСР 2019. – 324 с.;

5. Резолюция 17/2 Комиссии по предупреждению преступности и уголовному правосудию, Доклад о работе семнадцатой сессии (30 ноября 2007 года и 14-18 апреля 2008 года), E/2008/30 и E/CN.15/2008/22.